

60310903 – Psixologiya (amaliy psixologiya) **bakalavriat ta’lim yo‘nalishi**

60310903 – Psixologiya (amaliy psixologiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestasiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi.

Kasbiy vazifalari:

60310903 – Psixologiya (amaliy psixologiya) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriyat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo’lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda psixologik mavzularga oid tadqiqotlarda ishirok etishi;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yantuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- psixologiyaga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet-el ilmiy tadqiqot yantuqlarini o‘rganish;
- kasbiy faoliyat ob’yekti yo‘nalishiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar, yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish, ularning natijalariga ishlov berish, baholash va boshqa kasbiy faoliyat turlarini bajarish;
- ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;
- o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referat va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirop etish;

- ilmiy-amaliy jurnallarga maqolalar tayyorlash;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash; soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirish;
- psixologiya fani sohasiga doir ilmiy-tadqiqotlar bo‘yicha xorijiy va mahalliy tajribalarni uyg‘unlashtirish;
- ma’lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish;.
- ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga qo‘llash *qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.*